

Ahmad Muhammad Tursun

# QAYNONA VA KELIN

«Namangan» nashriyoti

## MUQADDIMA

Bismillahir rohmanir rohiym.

Xoliqimiz Alloh taologa beadam hamdu sanolar va Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga salovotu durudlar bo'lsin.

Hayotimizning qaysi sohasida baxtu saodatni, xususan, oiladagi totuvlik-iqbolni, farog'atni izlasak, uni albatta sharqona axloq-odobimizdan topamiz. Shu bo'ski, turmush tarzi buzuq aqidalar asosiga qurilgan qavmlar musulmonlarning oilaviy hayotiga, undagi ahillik va farog'atga, axloq va odobga havas bilan qaraydilar. Sharqona axloqdan chekinilgan xonadonlarda esa oila totuvligiga putur yetib, munosabatlar keskinlashib borgan. Er va xotin, ota-ona hamda farzandlar o'rtasida, oila va qarindosh-urug'lar orasida arzimas sabab-bahonalar bilan urush-janjallar, murosasizliklar kelib chiqqan. Ba'zi hollarda bular yanada jiddiylashib, o'zaro adovat, dushmanchilik darajasiga yetib boradi. Ayniqsa, bu hol butun dunyoda ma'lumu mashhur «qaynona va kelin» munosabatlarida ko'proq ko'zga tashlanadi.

Xo'sh, ana shunday murosasizliklarning, kelishmovchiliklarning oldini olish mumkinmi? Buning uchun qaynona va kelin, oilaning boshqa a'zolari nima qilishlari kerak? Bu haqda Islom dinining qanday ko'rsatmalari, tanbehlari bor? Qo'lingizdagi ushbu kamtarona urinishga ana shu savollarga bir qadar javob topmoq niyatida tartib berildi. Agar maqsadga erisholgan bo'lsak, bu ulug' Rabbimizning lutfu marhamatidan, aksincha bo'lsa, o'quvchilarimiz ma'zur tutgaylar. Alloh taolo barchamizni tavfiq va hidoyat nurlari ila nurlantirsin, oilalarimizga tinchlik, farog'at va totuvlik ato etsin, omin!

## SIZ QAYNONA BO'LDINGIZ...

Mana ikki yoshga nikoh o'qildi, to'y ham o'tdi. Mana siz necha yillik orzuvingizga erishdingiz. Alloh taolo xonadoningizga muborak bir kelinni tuhfa etdi. O'g'il farzand ko'rgandayoq yuragingiz qatlariga bitilgan «bir munosib kelin olish», «kelin emas, qiz olish» haqidagi yoqimli istaklar, shirin ilinlar ro'yobga chiqdi. Yillab yemay yiqqanlaringizni el oldiga dasturxon qilib yozdingiz. Yillab kiymay asraganlaringizni - qo'lingizga tushgan bir parcha matomi, birorta zirakmi - barini «egasi»ga topshirib xotirjam bo'ldingiz. Bugun siz - qaynonasiz.

Mahallama-mahalla kezib kelin axtarganingizda, qarindosh-urug'lar davrasida «Bu yil kelin olmoqchiman», deb qizi borning yuragiga shirin g'uluv solganingizda, ko'chadan o'tib borayotgan qaqajon qizlarning ortidan ma'yus termulib yer-u ko'kka ishonmaydigan o'g'lingizga munosib juft izlaganingizda, nihoyat mos kelinni topib to'y tadorigini ko'rayotganingizda ham faqat bugungi qaynonalik baxtini, nash'asini o'ylab yelib-yugurgansiz. Endi siz - qaynonasiz.

Niyatlaringizning, xayollaringizning chek-chegarasi yo'q. Keliningiz odob-axloqda, sharmu hayoda, muhabbat va sadoqatda, iffat va nazokatda yagona bo'ladi. O'g'lingiz bilan nihoyatda ahil-totuv, shirin